



BOLALARNING NUTQIY RIVOJLANISHIDA IJTIMIOY-PSIXOLOGIK OMILLAR TA'SIRI VA ULARNING AHAMIYATI

Izbullayeva Saodat Azamatovna

Buxoro davlat universiteti

Psixologiya yo`nalishi 2-bosqich magistranti,

Ganjiyev Feruz Furqatovich

Psixologiya kafedrası dotsenti,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(DSc) dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarda nutqning rivojlanishi hamda ularda kuzatiladigan nutqni amalga oshirish jarayonlari o'rganilgan. Bolalarda muloqot ko'lami kengayishi natijasida nutq faoliyati jarayonlari yoritib berilgan. Shuningdek, bolalarda nutqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar muhokama etilgan bo'lib, ularda nutqning fiziologik mexanizmlari va ularning nutqiy jarayonlardagi ahamiyati bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq fiziologiyasi, afaziya, kommunikatsiya, funksiya, predmet, ijtimoiy tajriba, verbal, nutq mexanizmlari, signallar signali, til grammatikasi, idrok, muloqot ko'lami.*

Аннотация: *В этой статье исследуется речевое развитие детей, а также процессы речевой деятельности, которые наблюдаются у них. В результате расширения сферы общения у детей освещаются процессы речевой деятельности, а также обсуждаются факторы, влияющие на формирование речи у детей, в которых описываются физиологические механизмы речи и их значение в речевых процессах.*

Ключевые слова: *физиология речи, афазия, коммуникация, функциональность, предмет, социальный опыт, вербальный, речевые механизмы, сигналы тревоги, грамматика языка, восприятие, диалог.*

Annotation: *The development of speech in children in this article as well as the processes of speech implementation observed in them are studied. In children of illuminates the processes of speech activity as a result of the expansion of the scope of communication given. Also, factors affecting the formation of speech and their the processes are described.*

Key words: *speech physiology, aphasia, communication, subject, social experience, verbal, speech mechanisms, signal of signals, language grammar perception, speech scale.*



Bugungi kunda bolalarda nutq shakllanishi va rivojlanishi dolzarb masalalardan biri bo'lib, ularda nutq shakllanishi ko'pgina omillarga uzviy bog'liqdir. Xususan, bolalarda nutqning buzilishi ya'ni afaziya holatlari ham mavjud bo'lib ushbu holat fiziologik, ijtimoiy- psixologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bularni o'rganish uchun fanda nutqning fiziologik va psixologik asoslari o'rganilgan bo'lib, biz bu borada nutq mexanizmlari haqida to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. Quyida nutq mexanizmlari va ularning nutq shakllanishidagi ahamiyatini ko'rib o'tamiz.

Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra, eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya qobig'ida tashqi olam tomonidan bo'ladigan turli xil qo'zg'atuvchilar bilan so'zlarning talaffuz qilinishini boshqarib turadigan tovush paychalari, xiqildoq, til va boshqa azolar harakati o'rtasidagi muvaqqat bog'lanishlar o'rnatiladi. Nutq ikkinchi signallar tizimi negizida amal qiladi. So'z, I.P. Pavlov fikricha, "signallar signali"dir. Nutqni dasturlashtirish- nutqiy ifodaning , ya'ni kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning ma'naviy o'zagini tuzish -birinchi bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqich- jumlaning sintaktik tarkibini tuzishdan iborat. Nihoyat, jumlaning ovozi chiqarib ayta boshlaydi, ya'ni nutq real tarzda ro'yobga chiqadi. Shunday qilib, "gapirish" jarayoni boshlanadi.

Nutqiy fikr-mulohazani kodlashtirish va kodini ochish jarayonlari og'zaki muloqotda muvaffaqiyat keltiradigan aqliy markazlar va tizimlar saqlanib qolganda yuz beradi. Mabodo ushbu tizimlar ishida buzilishlar ro'y bersa, kishi nutqida turli xildagi buzilishlar-afaziyalar (so'zlashish va tushunish qobiliyatining yo'qolishi) sodir bo'ladi.[1]¹

Demak nutq fiziologiyasi bir qator murakkab jarayonlarni o'z ichiga olgan bo'lib, nutqning shakllanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Xususan asosiy omillardan biri bu bolaning tug'ruq vaqtida kuchli jarohat olmasdan tug'ilishi ham nutqning o'z vaqtida shakllanishi va rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi deb ayta olamiz. Shuning uchun ham bola dunyoga kelishidan tortib, to uni bolalik yoshigacha bo'lgan davrda barcha fiziologik ijtimoiy- psixologik omillar uning nutqiy shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Aynan shuning uchun ham har bir ota-ona farzand dunyoga kelishi bilan uning jismoniy sog'ligi va ruhiy asab tizimini sog'lom rivojlanishi uchun soha mutaxassisleri tomonidan doimiy nazoratda bo'lishini ta'minlashlari maqsadga muvofiqdir. Bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishlariga befarq bo'lmasliklari tavsiya etiladi. Bu esa albatta kelajakda bolalarning jismonan sog'lom va ruhan tetik bo'lib voyaga yetishishlarida o'z samarasini ko'rsatadi. Shuningdek, nutqning ravon bo'lishida psixologik bilish jarayonlarining ham ahamiyati beqiyos. Chunki nutq bilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib ular bilan hamohang ravishda shakllanib boradigan

¹ Sh.R.Barotov, L.. Ya.Olimov, Z.M.Maxmudov "Muloqot psixologiyasi" Buxoro-2008



jarayondir. Misol sifatida aytib o'tish joizki, tafakkur o'sishi nutqning shakllanishiga va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Nutq faoliyati odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Nutq faoliyati aloqa jarayonining o'zidir. Bolalarda nutqning shakllanishi dastlab egosentsik nutq negizida paydo bo'la boshlaydi. Bu ular o'zi tushunadigan tilda o'ziga o'zi gapirib, kattalar nutqini kuzatish jarayonida ularda dastlabki muloqotga kirishish jarayoni paydo bo'la boshlaydi. Bu ichki nutqning tashqi nutqqa o'tishi bilan tavsiflanadi. Bola so'zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga - e'tibor qilishiga, erkalatilishiga, o'yinchoq kabilarga erishishga intiladi. So'z aloqa vositasiga aylanadi. Qo'llaniladigan so'zlar soni borgan sari to'xtovsiz orta boradi va 2 yoshda bolalarning so'z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki ularning grammatik shakllarini to'g'ri ishlatishi ham mumkin bo'lib qoladi, jumladan murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. Bolaning tili maktab yoshigacha bo'lgan yillar davomida boyib boradi.[2]²

Bugungi kunda maxsus adabiyotlarda 2,5- 3 yoshgacha bo'lgan nutq buzilishlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- Nutqning umumiy rivojlanmaganligi. Nutqning barcha tarkibiy qismlarining rivojlanishi buzilgan nutq anamoliyasining shakli (fonetik-fonemik, leksik-grammatik);
- Nutqni rivojlantirishning kechikishi. Nutqni rivojlantirish darajasi bolaning yoshiga mos kelmaydigan sur'atning sekinlashishi;
- Nutqning buzilishi. Miyaning shikastlanishi tufayli mavjud nutq va muloqot qobiliyatlarini yo'qotish;
- Nutqni rivojlantirishning buzilishi. Nutqni rivojlantirish jarayoni buzilgan.

B.P. Puzanov bolaning rivojlanishidagi og'ishlarni erta aniqlash va bartaraf etishga e'tibor beradi. U bolalarda nutq patologiyasini, xususan, shifokorlar, psixologlar, o'qituvchilar, defektologlar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatlari bilan erishiladigan nutq patologiyasini o'rganish, yengishga kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Bola eng avvalo oilada ilk so'zlashuv jarayonini shakllantirib boradi. So'ngra maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy kommunikatsiya ya'ni ijtimoiy muloqotga kirisha boshlaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning nutq boyligi oshib borishiga xizmat qiladi. Keyinchalik so'z boyligi tafakkur jarayoni bilan

² Sh.R.Barotov, L.Ya.Olimov, Z.M.Maxmudov "Muloqot psixologiyasi" Buxoro-2008²
P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent- 2008



birgalikda rivojlanib, murakkab soʻz birikmalarini tuzishga va suhbatlashib ehtiyojini qondirishga undaydi.

Bolalar nutqi Grammatik tuzilishining oʻsishi. Bolaning dastlabki gaplari bir soʻzdan iborat boʻladi. Shu bilan birga, bolaning aytgan bitta soʻzi – gapi bir necha maʼnoga ega boʻlishi mumkin. Masalan, bola: sut (shut) deyar ekan, bundan: “Sut ber”, “Sut ichaman”, “Ana sut” degan va boshqa shu kabi maʼnolarni ifodalashi mumkin. Shuningdek, bola: “mushuk” der ekan, bu bilan: “mushuk meni timdaladi”, “mushukni menga ber”, “mushuk bilan oʻynayapman” degan gaplarni aytayotgan boʻlishi mumkin.

Bola bir yoki bir necha soʻzdan iborat gapni aytish bilan oʻz fikrida boʻlgan va aytmoqchi boʻlgan narsasini qoʻl yoki imo-ishora bilan koʻrsatib bergandagina bolaning oldida turgan kishilar uning mana shu chala-chulpa gapini tushunishlari mumkin. Tilga kirgan bola bilan bir vaziyatda turgan vaqtingizdagina uning gapini tushunish mumkin.

Lekin bola bir yarim yoshga toʻlgandan keyin, ayniqsa, uch yoshga qadam qoʻyganda ona tilining Grammatik tuzilishini egallay boshlaydi.

Bola oz va koʻp tushunchasini juda erta farq qila boshlaydi. Bola ikki yoshga toʻlgunicha qadar katta va kichik tushunchasini ham farq qila boshlaydigan boʻlib qoladi (aka, opa, “ninni”, uka). Shuningdek, bola kelishiklarni ham juda erta (ikki yoshgacha) farq qila boshlaydi. Ammo qaratqich kelishigi oʻrnida, koʻpincha tushum kelishigi ishlatadi. (bizni uyimiz). Bolalar bu yoshda feʼllarni shaxs va zamon eʼtibori bilan ham birmuncha toʻgʻri ishlatadigan boʻlib qoladi. Bolalar buyruq feʼlini ancha tez va barvaqt oʻzlashtirib oladilar.

Bolalar toʻgʻri tarbiyalanib borganlarida, ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshiga yetganlarida, ularda tilning grammatika shakllarini amaliy ravishda egallash juda tez qadam bilan olgʻa qarab boradi. Shu yoshda bolalar murakkab gap sintaksissini ham egallab oladilar. Bolaning nutqida bir-biri bilan bogʻlangan qoʻshma gaplar paydo boʻladi. Ularning nutqlarida murakkab gaplar ishlatiladi. Bu gaplarda biror sabab, maqsad, xulosa, izoh, shart va shu kabilar aks ettirila boshlaydi. [3]³

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, nutqning ravon va aniq boʻlishi birinchi oʻrinda fiziologik jarayonlarning toʻgʻri rivojlanishiga bogʻliq boʻlsa, ikkinchidan, ijtimoiy –psixologik omillarga uzviy bogʻliqdir. Chunki bolada tilning tez yoki kech chiqishi oila aʼzolari bola bilan qay darajada tez-tez suhbatlashib turishlariga va uni eshitishlariga bevosita bogʻliqdir. Biz bilamizki, koʻpincha katta oilalarda ulgʻaygan bolalarning tili ertaroq chiqadi va tengdoshlariga nisbatan lugʻat boyligi yuqoriroq boʻladi. Buning sababi shundaki, bola kuzatib taqlid qilish va koʻp tinglash natijasida uning ichki

³ P.I.Ivanov, M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” Toshkent- 2008



nutqi tashqi nutqqa o'tib, bolada ilk "gapirish" jarayoni boshlanadi. Bolalar dastavval, ichki nutq bilan fikrlaydilar ichlarida taqlid qiladilar, tuzatadilar va so'ngra tashqi nutq orqali bevosita muloqotga kirishadilar. Bolalar ilk bora "gapirish" jarayonini oila a'zolari yordamida gapira boshlaydilar. Oila a'zolari qanchalik muloqotchan bo'lishsa, bolalarda nutq o'sishi shuncha ertaroq amalga oshadi. Ertaroq gapirishni boshlagan bolada esa tafakkur jarayonlari ham ertaroq shakllanib, fikrlash qobiliyati rivojlanib boraveradi. Tafakkur kurtaklari erta shakllansa, nutq shunchalik teran va mazmunli bo'lib, bolalarning kelajakda darslarni oson o'zlashtirishlariga samarali hissa qo'shadi. Shuning uchun bolada tilning kech yoki erta chiqishi ham uni o'rab turgan oilaviy muhit va ijtimoiy kommunikatsiya omillari bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda ko'pgina ta'lim muassasalarida ham bejiz, vizual va audial zamonaviy texnologiyalar asosida darslar tashkil etilmagandir. Shu boisdan bolada ba'zi hollarda tafakkur nutq bilan birgalikda rivojlanishi bir tekisda kechmasligi mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, bolalarda nutqning shakllanishi va rivojlanishida uning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ham ruhan va jismonan sog'lom bolalarni voyaga yetkazish va tarbiyalash esa biz ota-onalarning hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida har bir insondan jiddiy ma'suliyatni talab etadi. Qachonki biz nutqning sog'lom va teran shakllanishiga e'tiborli bo'la olsak, o'shanda sog'lom avlodni yetuk bo'lib voyaga yetishishida o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR:

1. SH.Barotov, L.Olimov, Z.Maxmudov "Muloqot psixologiyasi" Buxoro 2008
2. . P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent -2008
3. A.M. Nazarov Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. Buxoro-2021
4. A.K. Shamshetova R.N. Melibayeva, X.E. Usmanova, I.O. Xaydarov "Umumiy psixologiya" Toshkent – 2018
5. A.Xuseynova, A.Nazarov "Umumiy psixologiya" Buxoro-2021

INTERNET SAYTLARI:

1. <https://www.dissercat.uz>
2. <https://www.psych.uz>
3. <https://www.works.doklad.ru>
4. <https://www.ziyonet.uz>
5. <https://www.psychology.com>